



SHERMUHAMMAD MUNIS QASIDALARINI TADQIQ ETISH MASALALARI

Muallif: Jobir Ismatilloev¹

Affiliyatsiya: Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20205617>

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda Xorazm adabiy muhitida qasidanavislik an‘analari va bu janr rivojida Munis Xorazmiyning o‘rni, shoir devonining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari va “Firdavs ul-iqbol” asaridan o‘rin olgan qasidalar hamda ularning o‘rganilishi xususida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Munis Xorazmiy, “Munis ul-ushshoq”, “Firdavs ul-iqbol” qasida, nasib, madh, vasf.

Adabiyotimiz tarixida Xiva xonligi va bu davrda vujudga kelgan Xorazm adabiy muhiti muhim o‘rin tutadi. Hokimiyat tepasiga rasman qo‘ng‘irotlar sulolasi vakillari kelgandan so‘ng xonlik madaniy hayotida ham muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xonlikda Munis Xorazmiy, Pahlavonquli Ravnaq, Roqim, Ogahiy, Muhammad Rahimxon Feruz, Komil Xorazmiy, Ahmadjon Tabibiy, Yusuf Bayoniy kabi o‘nlab iste‘dod sohiblari badiiy ijod, tarixnavislik va tarjima bilan shug‘ullanganlar. Adabiy muhitda bir qator janrlar jumladan qasidanavislik darajada rivoj topdi. Shoirlar o‘tmish an‘analarini davom ettirish bilan birgalikda bu janrga bir qator yangiliklar ham kiritishdi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yashab, ijod etgan Shermuhammad Avazbiy o‘g‘lining “Munis ul-ushshoq” devonida mumtoz adabiyotga xos o‘ndan ortiq janrdagi she‘rlar jamlangan bo‘lib, ular orasida qasidalar salmoqli o‘rinni egallaydi.

Besh jildlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligining to‘rtinchi jildida qayd etilishicha shoir devonining beshdan bir qismini qasidalar tashkil etadi [6:370].

Ma‘lumki, Munis Xorazmiy hayoti va ijodiy merosi Rahmat Majidiy, Yunus Yusupov, N.Mallayev, A.Bobojonov, V.Zohidov, V.Abdullayev, N.Jumaxo‘ja, T.Ahmedov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda shoir qasidalar xususidagi ma‘lumotlar uchraydi. Yunus Yusupov tomonidan 1957-yilda Munis Xorazmiyning “Tanlangan asarlari” va 1980-yilda “Saylanma”si nashr ettirilgan. “Tanlangan asarlar”da “She‘rlar” sarlavhasi ostida “Bahor”, “Iyd”, “Erur charx berahim”, “Charog‘i nola” nomlari bilan qasidalaridan parcha berilgan[4:37]. “Saylanma” ham ayrim o‘zgarishlarni hisobga olmaganda oldingi nashr bilan deyarli bir xil. “Saylanma”da to‘qqizta janr ketma-ketlikda berilgan va Munisning “Savodi ta‘lim” asari va lug‘at ilova qilingan[7:224]. Yunus Yusupovning kitob so‘zboshisida mazkur ikki nashrni tayyorlashda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan Munis devonining 940, 1330, 1793 va 7865 inventar raqimli qo‘lyozma va toshbosma nusxalaridan foydalanganini ta‘kidlagan. “Saylanma”da yuqorida qayd etilgan qasidalar “Qasidalar” sarlavhasi ostida kiritilgan. Mazkur qasidalar qisqartirilgan shaklda saylanmaga kiritilgan. Qasidalar hajm jihatdan qiyoslashda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan

Munis devonining 63-raqamli toshbosma nusxasidan foydalanamiz. “Saylanma”da “Bahor” nomi bilan 25 bayti berilgan qasida toshbosmadagi uchinchi qasida bo‘lib hajmi 83 baytni tashkil etadi. Qasidaning nasib qismi bahor vasfi bilan boshlanadi. “Saylanma”da berilgan parcha o‘qigan kishi Xiva xoni Muhammad Rahimxon I ga bag‘ishlanganini anglamaydi. “lyd” qasidasi toshbosmada 81 baytni tashkil etadi. “Saylanma”da 24 bayti berilgan. Ushbu qasida Munisning Navoiyga munosib izdosh sifatida barkamol ijodkor ekanligini yaqqol namoyon etadi. Alisher Navoiyning Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan “Hiloliya” qasidasiga tatabbu tarzida yozilgan ushbu she‘r Muhammad Rahimxon I ga bag‘ishlangan [2]. Shoir mamduh ismini oshkora ifoda etmay muammo san‘atidan foydalangan. Toshbosmadagi yigirma ikkinchi qasidaning hajmi 73 bayt bo‘lib “Saylanma”da 23 bayt kiritilgan. Qasida Muhammad Rizo qo‘shbegi bag‘ishlangan. “Saylanma”da 33 bayti keltirilgan “Charog‘i nola” qasidasining hajmi 63 baytni tashkil etadi. Toshbosmadagi to‘rtinchi qasidadir. Mazkur qasida diniy ruhdagi qasida bo‘lib, uning “Saylanma”da berilgan qismini o‘qigan kitobxon buni anglamaydi. Yuqoridagi baytlarda ko‘rganimizdek shoirning zamondan shikoyat, jamiyatlardagi adolatsizliklardan alamzadalikni ifodasidir. Qasidaning nasib qismi xasbu hol shakldadir. To‘liq shakli bilan tanishgan kitobxon, qasidaning to‘rtinchi xalifa Ali ibn Abu Tolibga bag‘ishlanganini anglaydi. 63-raqamli toshbosmada qasida sarlavhasi mavjud emas. Devonning 940-raqamli qo‘lyozmasida “Manqabati Hazrati Ali Karimaullohi vajha” deya sarlavha yozilgan [3].

Adabiyotshunos olim V.Abdullayev “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida Munis qasidalarini bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan. Munis Xorazmiyning saroyda xizmat faoliyat boshlashiga Avazbiy inoq taklif etgan. Kitobda qayd etilishicha shoir 1801-yilda Xiva xonlikning shimoliy qismida isyon ko‘targan To‘ramurod so‘fini mag‘lub etgani sharafiga hukmdorga bag‘ishlab 36 baytli qasida yozganligi xususida qayd etadi [1:240]. Ushbu ma‘lumotga qaraganda shoir bu vaqtda 23 yoshda bo‘lgan. Ushbu she‘r shoirning dastlabki qasidalaridan biri deya taxmin qilish mumkin. V.Abdullayev mazkur tadqiqot ishida shoirning Muhammad Rahimxonga bag‘ishlangan “Xorazm” radifli qasidasidan olti bayt keltirgan. Qasidada Xorazm diyorining firdavsmonand zamin ekanligini ta’kidlash bilan bir qatorda mamlakatning obod bo‘lishida jonbozlik ko‘rsatgan hukumdorni ulug‘lagan. Qasida qirq uch baytni tashkil etadi. 940-raqamli qo‘lyozmasida qasida “Xorazmi Eram bazmining ta’rifu-tavsifi va Muhammad Rahimxonning madhi” deya nomlangan. Qasida quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

*Boshi ko‘kka chekib hisori Xorazm,
Olamg‘adur iftihori Xorazm.*

*Dur maxzani, ilm mazharidur,
Har maxfiyu oshkor Xorazm.*

Qasidaning yigirma ikkinchi baytidan hukmdor madhi boshlangan. Shoir mamduhning adolati, miskinlarga ko‘rsatgan sahovati hamda Xorazm zaminini obod etib, firdavsmonand ma‘voga aylantirgani ifoda etgan. Qasidaning so‘nggi ikki baytida xonni duo qilbi, ezgu tilaklarini izhor etgan:

*Munis qiladur duoyi davlat,
Ey xisravi baxtiyor Xorazm.*

*Iqbol hamisha yoring o‘lsun,
To bor durur diyor Xorazm.*

Shoir faoliyat yuritgan davrda davlatni nisbatan ko'p yil boshqargan hukmdor Muhammad Rahimxon (1806-1825) edi. Tarixiy manbalar ham guvohlik berishicha, Muhammad Rahimxon davrida xonlik sarhaddari yanada kengayib, poytaxt Xivada keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirildi. Muhammad Rahimxonning qarib yigirma yillik hukmronlik davrida amalga oshirgan islohotlarini bevosita guvohi bo'lgan Munis unga atab bir nechta qasidalar yozdi.

Ta'kidlab o'tganimizdek Munis Xorazmiy qasida janrida sermahsul ijod etgan shoirlardan biridir. "Munis ul-ushshoq"ning 63-raqamli toshbosmasida yigirmadan ortiq qasidalar kiritilgan. Qasidalar an'anaga ko'ra hamd, nat bilan boshlangan. Shoirning ijodiy faoliyati to'rtta hukmdor davriga to'g'ri keladi. Qasidalarinig ikkitasi Eltuzarxon, to'rttasi Olloqulixon, to'qqiztasi Muhammad Raximxonga bag'ishlangan. "Firdavs ul-iqbolda" shoir qalamiga mansub ikki qasida mavjud[5:41]. Shoirning har ikki qasidasi Eltuzarxonga bag'ishlangan. Chunki Xorazm tarixiga doir asar yozish xususida Eltuzarxon Munisga topshiriq bergan. Natijada "Firdavs ul-iqbol" dek qimmatli asar yaratilgan. Asardagi ikkinchi qasida, muqaddima qismning yakunida kelgan. O'ttiz bir baytni tashkil etadi.

*Chekib Haq azal subhi kilki qazo,
Bitib barcha ahloqi neku anga.
Fazoil kelib zotida jilvagar,
Sukun birla sayri sarosar hunar.*

Qasidaning dastlabki baytlaridan boshlab mamduhga xos go'zal fazilatlar taqdiriga bitilgani ifoda etilgan. Azal tongida taqdir qalamini harakatga keltirilib, hukmdorga barcha yaxshi xulqlar yozildi. Fazilatlar uning zotida jilvalandi. Shoir bu holatni Yaratganning inoyati sifatida ifoda etadi. Qasidaning keyingi baytlarida ham xonning fazilatlarini bayon etar ekan, hilmida xalifa Usmonga o'rinbosar, shijoatda esa Rustam uning oldida ojizdir deydi. Xirad (donolik, aql, idrok) qalbiga shu qadar sayqal berganki, ming yil keyin ro'y beradigan voqeani ham biladi. U so'zlaganda hatto Aflotun ham gung kabi lol qoladi deya mubolag'alar asosida xonni maqtaydi. Shuningdek, shoir o'zini Alisher Navoiyga, Eltuzarxonni esa Husayn Boyqaroga mengzaydi. Temuriy hukmdor, shoir, san'at va adabiyot homiysi Husayn Boyqaro ijod ahliga, jumladan Alisher Navoiyga yuksak hurmat ko'rsatgani tarixdan ma'lum. Munis misralarda shunga ishora qilib, men ham shohimni madh etdim. U menga iltifot ko'rsatsa-yu, mening shuhratim (martabam) Navoiydan-da baland bo'lsa ajab emas, degan fikrni ilgari surgan holda xondan e'tibor va e'tirof kutadi. Munis Xorazmiy zullisonayn shoir sifatida fors tilida ham ijod qilgan. Shoir devoni qo'lyozmalarining ayrimlarda forscha qasidalarini ham mavjud.

Mustabid tuzum hukmronligi davrida diniy ruhdagi qasidalar, shuningdek sovet mafkurasi tomonidan "feodal hukmdorlar" sifatida qoralangan xonlarga bag'ishlangan madhlarni nashr etish va ommaga taqdim qilish imkoniyati deyarli mavjud bo'lmagan. Natijada, qasida janriga mansub ko'plab badiiy namunalar, jumladan Munis Xorazmiy qasidalar ham yetarlicha o'rganilmay, ilmiy muomaladan chetda qolgan. Bugungi kunda istiqlol sharofati hamda ilm ahliga yaratilgan imkoniyatlar natijasi o'laroq milliy adabiy merosimizni qayta kashf etish, uning unutilgan sahifalarini tiklash va xolisona baholash jarayoni jadallik bilan olib borilmoqda. Xususan, Munis Xorazmiy qasidalarining matniy tadqiqi, badiiy-estetik xususiyatlarini yoritish borasida muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi 2-kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – – B. 384.
2. Munis, Shermuhammad. Devon. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondi, № 63 raqamli toshbosma.
3. Munis, Shermuhammad. Devon. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondi, № 940 raqamli qo‘lyozma.
4. Munis. Tanlangan asarlar (nashrga tayyorlovchi Y.Yusupov). – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1957. – B. 383.
5. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 520.
6. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent, 1978. – 389-bet.
7. Шермухаммад Мунис Хоразмий. Сайланма (нашрга тайёрловчи Ю. Юсупов). – Toshkent: F. Фулом НАСН, 1980. – 366 б.